

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI BIRIKMALI NEKROTOPONIMLAR

Yusupov San'at Shuxratovich

Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: sanatyusupov999@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Birikmali nekrotoponimlar o'rganilgan

Kalit so'zlar: son, ot, indikator, apellyativ, aniqlovchi, nekrotoponim

O'zbek tilida toponim yasashning ikki yoki undan ortiq birlikning qo'shilishi bilan yasaladigan turi ham borki, bu usul sintaktik usul deyiladi. Samarqand etnonimlari va etnooykonimlarini tadqiq qilgan tilshunos A.Turobov shunday yozadi: „Kompozitsiya usuli bilan etnonim yasash qo'shma etnonimlar yaratish bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik – etnonimni hosil qiladi. Sintaktik usul o'zbek tilidagi faol usullardandir. Qo'shma etnonimning qismlari ayrim so'z tusida bo'ladi bu birlik shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yo negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu birlikning ikki holati ayrim so'zligi va qo'shma etnonim tarkibida kelishi bir- biridan jiddiy farqlar bilan ajralib turadi“.¹

Qoraqalpog'iston nekrotoponimlari ichida ham bir qancha birikmali nekrotoponimlar uchraydi.

Apellyativ + aniqlovchi + indikator tarkibli nekrotoponimlar:

Eroxun eshon bobo (Amudaryo tumanining Toshyp OFYda joylashgan). Bunda birinchi komponent kishi ismini, ikkinchisi diniy unvonni, uchinchisi nekrotoponimik indikator hisoblanadi.

Shuningdek, apellyativ + indikator tarkibli nekrotoponimlar:

Sa'd Vaqqos bobo (Ellikqal'a tumani "Kichik Guldursun" MFYda joylashgan). **Sultan-Uvays bobo** (Beruniy tumani "Do'stlik" OFYda joylashgan).

Aniqlovchi + apellyativ + indikator qolipidagi nekrotoponimlar:

Shayx Abbos Vali (Beruniy tumani Xorazm MFYda joylashgan), **Xo'ja Jabr bobo** (Beruniy tumani Shimom OFYda joylashgan) kabi.

Aniqlovchi+ apellyativ qolipidagi nekrotoponimlar ham mavjud. Masalan: **Bibi Mushkul Kushod** (Ellikqal'a tumanining "Sarabiy" OFYda joylashgan). Bunday *bibi* komponenti xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Mushkulkushod so'zi lug'atda shunday izohlangan: **MUSHKULKUSHOD** [a+f.t] *din*. Kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan duo va irim-sirimlar" (O'TIL, I, 486).

¹ Тuroboв А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. –Самарқанд, 2022. –С. 114-115.

Shu nomdagi yana bir nekrotoponim mavjud bo'lib, u To'rtko'l tumanining "Ko'hna To'rtko'l" OFYda joylashgan.

Aniqllovchi+ot qolipidagi nekrotoponimlar:

Shayx Abbos Vali (Beruniy tumani Xorazm MFYda joylashgan), shuningdek **Shayx Jalil bobo** (Amudaryo tumanining Qipchoq OFY da) nekrotoponimi ham mavjud bo'lib, uning uchinchi komponenti indikator bo'lib keladi.

Uch komponenti ham indikatorlardan tashkil topgan nekrotoponimlar ham uchraydi. Ko'pincha hoji, eshon va bobo so'zlari indikator bo'lib keladi. Amudaryo tumanining Qipchoq shaharchasi hududida joylaashgan **Hoji Eshon bobo**, Amudaryo tumanining Uyshin MFYda joylashgan **Xo'ja eshon bobo** nekrotoponimlari shunday qolip asosida yasalgan. Ikkinchi nekrotoponim tarkibidagi *xo'ja* komponenti ham ko'pincha indikator vazifasida keladi.

Tarkibida son komponenti qatnashgan nekrotoponimlar ham mavjud.

Sanoq son + shahid qolipida tuzilgan nekrotoponim **Ming yarim shahid** (Amudaryo tumanining "Bo'ston" MFYda joylashgan). Yigirmanchi asrning yigirmanchi yillarida ruslar bilan bo'lgan urushda qurbon bo'lgan odamlar dafn etilganligi uchun shunday nomlangan.

Son+ot+indikator qolipida tuzilgan **Qo's maxsim xoja** nekrotoponimi (Qo'ng'iro't tumanining "Qangli" OFYda joylashgan) mavjud bo'lib, (o'zbek tilida qo'sh maxsum xo'ja) ushbu qabristonga xalq orasida mashhur bo'lgan ikkita maxsum xo'ja dafn qilinganligi uchun shunday nomlangan.

Son+ot+ot qolipida tuzilgan **Ush qiz apay** nekrotoponimi (Chimboy tumanining Tazgara APJ da joylashgan) mavjud bo'lib, u o'zbek tilida **Uch qiz opa** shaklida ishlatiladi.

Son+ot+indikator qolipida tuzilgan lavozimni bildiradigan so'z vositasida yasalgan **Yuz boshi bobo** nekrotoponimi (Amudaryo tumani Yuqori qishloq MFYda joylashgan) ham mavjud.

Ajratib yozidadigan, ikki komponentdan iborat birikmali nekrotoponimlar ham istifoda etiladi.

Atoqli ot+ indikator qolipida tuzilgan nekrotoponimlar. Ularda ba'zilar **bobo** indikator bilan qo'llaniladi:

Abdimalik baba (o'zbekcha bobo) (Shomanay tumanining "Diyxanabat" APJda), **Ajiniyoz bobo** (Mo'ynoq tumanining "Bo'zatov" OFYda), **Aqpan baba** (o'zbekcha bobo) (Shomanay tumanining "Ketenler" APJda joylashgan) kabi.

Apellyativlar tarkibida formantlar ham ishtirok etishi mumkin: **Alamli bobo** (To'rtko'l tumanining "Beruniy" MFYda), **Azizler bobo** (Nukus tumanining "Samanbay" OFYda), **Imomjon bobo** (Ellikqa'la tumanining "Tozabog'" OFYda joylashgan) kabi..

Ayrimlari **ota** indikatorini bilan qo'llaniladi. Qurilish qolipi yuqoridagi kabi: **Abdujalil ota** (Amudaryo tumanining Qaramon MFY da), **Latifboy ota** (Ellikqal'a tumanining "Amirabod" OFYda), **Miskin ota** (Amudaryo tumanining Qangli OFY da joylashgan) kabi.

Shayx (qoraqalpoqcha *shayiq*) indikatorini bilan ham qo'llaniladi. Bunda atoqli ot+indikator: **Murat shayiq** (Qora'zak tumani "madaniyat" APJ da joylashgan).

Son+indikator qolipida tuzilgan **To'rt shayx** nekrotoponimi (Ellikqal'a tumanining "Qilchinq" OFYda joylashgan) ham uchraydi.

Atoqli ot + *maxsum* (qoraqalpoqcha maqsim) indikatorli nekrotoponimlar ham uchraydi: **Musa maqsim** (Qo'ng'iroq tumani Qipchoq ovulida) **Nasrulla maqsim** (Mo'ynoq tumanining "Bo'zavat" OFYda), **Serimbet maqsim** (Chimboy tumani "Arjap" MFYda joylashgan) kabi.

Atoqli ot+*oxun* (qoraqalpoqcha axun) indikatorli nekrotoponimlar: **Nurimbet oxun** (Kegeyli tumanining "Abat" OFY da) **Qasimbet axun** (Chimboy tumanining "Tag-jap" OFYda), **Suleymen axun** (Taxtako'pir tumanining "Qarateren" MPJda joylashgan) kabi.

O'zbek tilida toponim yasashning ikki yoki undan ortiq birlikning qo'shilishi bilan yasaladigan turi ham borki, bu usul sintaktik usul deyiladi. Nekrotoponimlar tarkibida ikki va uch komponentli birikmali nekrotoponimlar ham mavjud bo'lib, ular komponentlarining birikish yo'llariga, qoliplariga ko'ra farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Туробов А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. –Самарқанд, 2022. –С. 114-115.
2. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2008. –С. 184.
3. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик тамойиллари // ЎТА. – Тошкент, 1984. 4-сон. –С. 12.
4. Пайгамбарлар тарихи. Масъул муҳаррир Анвар қори Турсунов. – Тошкент: Munir, 2021. –С. 226.
5. Жанузақов Т. Орталық Қазақстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.175-176.
6. Shuxratovich, Y. S. A. (2024). NEKROTOPONIMLARDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI QORAQALPOG' ISTON MISOLIDA. Hamkor konferensiyalar, 1(5), 51-54.
7. Shuxratovich, Y. S. A. (2024). TYPES OF NECROTOPONYMS IN KARAKALPAKSTAN ACCORDING TO THEIR GRAMMATICAL STRUCTURE. American Journal of Philological Sciences, 4(09), 106-114.
8. Shuxratovich, Y. S. A. (2024, March). "BOBO" INDIKATORLI NEKROTOPONIMLARNING BA'ZI SEMANTIK XUSUSIYATLARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 7, pp. 92-94).